QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2023- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma’lumotlar

## 2018-2023 yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), *birlikda*




### Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023 yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **29744** tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **4783** taga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **8,5** birlikni tashkil qildi.

### Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

2023- yilning yanvar - iyunida **3730** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **73,8** % ga kam demakdir.

## 2023- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi

- **9,0 %** — Qurilish — 2666
- **35,7 %** — Savdo — 10630
- **5,8 %** — Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar — 1716
- **20,1 %** — Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi — 5976
- **3,3 %** — Tashish va saqlash — 985
- **13,5 %** — Sanoat — 4012

## Hududlar bo‘yicha 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, *birlikda*




2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan soni jami **29744** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3730** tani tashkil etdi

2023- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi Qarshi shahrida **5731** tani yoki jamiga nisbatan **19,3 %** ni tashkil etdi.

## 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, *birlikda*



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

**Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, 1- iyul holatiga, *birlikda***




2023- yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soning har 1000 aholiga nisbatan **8,5** birlikni tashkil etib, bu ko’rsatkich 2022 yilga nisbatan **1,5** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko‘rsatkich Qarshi shahrida **19,2** birlik, Shaxrisabz shahrida **11,1** birlik, Mirishkor tumanida **10,5** birlik, Muborak tumanida **10,1** birlik, Nishon tumanida **8,8** birlikka yetdi.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soning har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*)***




** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

**Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda***

**Eng yuqori ko‘rsatkich** — **Qarshi shahar – 19,6 birlik.**

**O‘rtacha ko‘rsatkich** — **Koson tumani – 7,7 birlik.**

**Eng past ko‘rsatkich** — **Ko'kdala tumani – 4,1 birlik.**

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko‘rsatkich Qarshi shahrida **19,6** birlik, Shahrisabz shahrida **11,1** birlik, Mirishkor tumanida **10,5** birlik, Muborak tumanida **10,1** birlik, Nishon tumanida **8,8** birlik, Dehqonobod tumanida **8,4** birlik, Yakkabog’ tumanida **7,8** birlik, Qarshi tumanida **7,8** birlik, Koson tumanida **7,7** birlik kuzatildi.

**2023- yilda har 1000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda***

| Qarshi shahri | Shahrisabz shahar | Mirishkor tumani | Muborak tumani | Nishon tumani | Dehqonobod tumani |
|---|---|---|---|---|---|
| 19,6 | 11,1 | 10,5 | 10,1 | 8,8 | 8,4 |

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, *birlikda*

| 2022- y. | | 2023- y. |
|---|---|---|
| 672 | Qarshi sh. | 489 |
| 292 | Shahrisabz sh. | 149 |
| 323 | G'uzor | 251 |
| 260 | Dehqonobod | 192 |
| 384 | Qamashi | 200 |
| 332 | Qarshi | 276 |
| 384 | Koson | 326 |
| 309 | Kitob | 240 |
| 272 | Mirishkor | 174 |
| 167 | Muborak | 98 |
| 222 | Nishon | 221 |
| 348 | Kasbi | 268 |
| 126 | Ko'kdala | 133 |
| 322 | Chiroqchi | 153 |
| 301 | Shahrisabz | 241 |
| 343 | Yakkabog' | 319 |

## 2023- yil yanvar-iyunida yangi tashkiletilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da




2023- yil yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Qarshi shahri – **13,1 %**, Koson tumani – **8,7 %**, Yakkabog’ tumani – **8,6 %**, Qarshi tumani – **7,4 %**, Kasbi tumani – **7,2 %,** G'uzor tumani – **6,7 %**, Shahrisabz tumani – **6,5 %** hissalariga to‘g‘ri keldi.

## 2022-2023- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, *birlikda*

**Savdo**
2022- y. 1831 ta
2023- y. 1135ta

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo’jaligi**
2022- y. 1222 ta
2023- y. 1087 ta

**Sanoat**
2022- y. 957 ta
2023- y. 577 ta

**Yashash va ovqatlanish bo’yicha xizmatlar**
2022- y. 340 ta
2023- y. 235 ta

**Qurilish**
2022- y. 158 ta
2023- y. 165 ta

**Axborot va aloqa**
2022- y. 53 ta
2023- y. 66 ta

**Tashish va saqlash**
2022- y. 77 ta
2023- y. 164 ta

**Boshqa xizmatlar**
2022- y. 362 ta
2023- y. 254 ta

**Sog’liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish**
2022- y. 57 ta
2023- y. 47 ta

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, *birlikda*




2023- yil yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha eng ko’p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **1135** ta, Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo’jaligida **1087** ta hamda sanoatda **577** ta yangidan tashkil etilgan.

Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko’p kichik korxona va mikrofirma Qarshi shahrida **489** ta, Koson tumanida **326** ta hamda Yakkabog’ tumanida **319** ta yangidan tashkil etilgan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2019-2023 yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, *birlik***




**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2018-2023 yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, *ming birlik***




So‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo‘yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e’tiborlari natijasida 2019-2023 yillar davomida jami **20884** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p yangi subyektlar Savdo sohasida **6776** ta (yoki **32,4 %**), Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **5723** (yoki **27,4 %**) ta, Sanoat sohasida – **3695** ta (yoki **17,7 %**), Xizmatlar sohasida **3549** ta (yoki **17,0 %**), va Qurilish sohasida – **1141** ta ( yoki **5,5 %**) tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

**Kichik korxona va mikrofirmalar so‘ngi 3 yilda eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar**

| Tarmoq nomi | Korxonalar soni, birlik | Tarmoq-dan ulushi, %da |
|---|---|---|
| **Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | | |
| Aralash qishloq xo'jaligi | 781 | 17,2 |
| Danakli va po'choqli urug`i bo'lgan mevalar etishtirish | 704 | 15,5 |
| Qorako'l zotlilardan tashqari qo'ylarni ko'paytirish | 531 | 11,7 |
| Uzum etishtirish | 268 | 5,9 |
| Qorako'l zotli qo'ylarni ko'paytirish | 253 | 5,6 |
| **Sanoat** | | |
| Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoe ishlab chiqarish | 396 | 8,7 |
| Boshqa to'qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish | 200 | 4,4 |
| Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish | 192 | 4,2 |
| Metall eshik va derazalar ishlab chiqarish | 147 | 3,2 |
| Betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish | 126 | 2,8 |
| **Qurilish** | | |
| Turar joy binolarini qurish | 189 | 32,5 |
| YAshash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish | 141 | 24,3 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | 119 | 20,5 |
| Elektrotexnik va montaj ishlari | 27 | 4,6 |
| Yo'llar va shosselar qurish | 25 | 4,3 |
| **Savdo** | | |
| Ixtisoslashmagan do'konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi | 394 | 7,9 |
| Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi | 428 | 8,6 |
| Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa yangi tovarlar chakana savdosi | 440 | 8,8 |
| Ixtisoslashmagan ulgurji savdo | 500 | 10,1 |
| Ixtisoslashmagan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi | 1562 | 31,4 |
| **Xizmatlar sohasi** | | |
| Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo'yicha xizmatlar | 390 | 14,5 |
| Mehmonxonalar va shunga o'xshash yashash joylari | 328 | 12,2 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar | 306 | 11,4 |
| Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari | 300 | 11,1 |
| Avtomobil transportida yuk tashish | 185 | 6,9 |
| | | |

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari asosida tahlililar shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘ngi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, So‘ngi 5 yilda eng ko‘p savdo sohasining Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo‘nalishida **1562 ta** yangi kichik korxona va mikrofirma tashkil etilgan bo‘lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarning **31,4 %** ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so‘ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta’lim yo‘nalishlarida ham ko‘plab kichik korxona va mikrofirmalar ochilayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, sanoat sohasida so‘ngi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikataj mahsulotlarni ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, qurilish sohasida esa ko‘proq yangi kichik korxona va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo‘nalishlarida ko‘proq tashkil etilmoqda.

**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari,** ***% da***



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

**2023- yil yanvar-iyunida Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, *% da***




**2023 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo’lgan tarmoqlar, *% da***




2023 yil yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **56,9 %** ni tashkil qilib, 2022- yilga nisbatan **1,7** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo’shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.

2023 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo’jaligida **98,8 %** ni, yo’lovchi aylanmasida **96,6 %** ni, yuk aylanmasida **91,4 %** ni, savdoda **80,9 %** ni, qurlilishda **76,1 %** ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

*Hajmi, mlrd so’mda*




*Ulushi, %da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati

*Hajmi, mlrd so’mda*




*Ulushi, %da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati

*Hajmi, mlrd so’mda*




*Ulushi, %da*



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo’jaligi faoliyati

*Hajmi, mlrd so’mda*




*Ulushi, %da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati

*Hajmi, mlrd so’mda*




*Ulushi, %da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko’rsatishdagi faoliyati

*Hajmi, mlrd so’mda*




*Ulushi, %da*



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

## 2023- yil yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomoinidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, *mlrd. so’m*




2023- yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3010,7** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (**543,7** mlrd. so‘m), Chiroqchi (**299,4** mlrd. so‘m), Koson (**244,5** mlrd. so‘m), Kasbi (**214,5** mlrd. so‘m), Qarshi (**211,2** mlrd. so‘m), va Shahrisabz shahri (**194,3** mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi. Ko’kdala tumanida (**90,3** mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, *%da*



## 2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, *% da*




## 2023- yil yanvar-iyunida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, *% da*




2023- yil yanvar-iyunida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **21,2 %** ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Ko’kdala tumani **(100,0 %)**, Shahrisabz shahri (**86,4 %**), Chiroqchi tumani (**80,5 %**), Shahrisabz tumani (**53,7 %**), Muborak tumani (**44,1 %**), Koson tumani (**39,8 %**), Mirishkor tumani (**36,8 %**), Qamashi tumani (**35,9 %**), Yakkbog’ tumani (**32,8 %**), Qarshi shahri (**32,8 %**), Kitob tumanida (**28,0 %**) va Kasbi tumani (**24,9 %**) tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

## 2023- yil yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




## 2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, *% da*




2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3019,4** milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **76,1 %** ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2022- yil Yanvar-mart oylariga nisbatan **100,5 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qarshi shahri **926,4** (mlrd. so‘m), Qarshi (**299,0** mlrd. so‘m), Koson tumani (**219,3** mlrd. so‘m), G'uzor (**214,8** mlrd. so‘m), Chiroqchi (**208,2** mlrd. so‘m), Kitob (**162,8** mlrd. so‘m), Kasbi (**161,9** mlrd. so‘m) hamda Yakkabog’ (**158,5** mlrd.so‘m) tumanlarida qayd etildi.

## 2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o’zgarish dinamikasi, mlrd. *so’mda*



## 2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, *mlrd. so'mda*




2023- yil yanvar-iyunda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **2424,3** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **33,2 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **109,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Qarshi shahri (**397,1** mlrd. so'm), Koson (**202,5** mlrd. so'm), G'uzor (**201,2** mlrd. so'm), Qarshi ( **200,0** mlrd. so'm), Nishon (**183,6** mlrd. so'm), Yakkabog' (**176,4** mlrd. so'm), Qamashi (**172,2** mlrd. so'm) hamda Kitob (**166,4** mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.

## 2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, *% da*




## 2023- yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



## 2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, *mlrd. so'mda*




2023- yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **14991,4** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **98,8 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **102,4** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Chiroqchi (**1508,8** mlrd. so'm), Koson (**1418,7** mlrd. so'm), Kitob (**1281,1** mlrd. so'm), Qamashi (**1187,5** mlrd. so'm), Yakkabog' (**1158,6** mlrd. so'm) hamda Qarshi (**1034,7** mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.

## 2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




## 2023- yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



### 2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, *mlrd. so'mda*




2023- yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **7208,7** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **81,2 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **104,7 %** ni tashkil qildi.

### 2023- yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, *mlrd. so'm*




### 2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, *% da*




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (**1820,3** mlrd. so'm), Shahrisabz shahri (**764,8** mlrd. so'm), Koson ( **561,8** mlrd. so'm), Qamashi (**534,4** mlrd. so'm), Chiroqchi (**410,8** mlrd. so'm) va Yakkabog' (**429,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ko’rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, *%da***




**2023- yil yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko’rsatishi hajmi, *mlrd. so’mda***




2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5933,5** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,6** % ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2022- yil Yanvar-iyun oylariga nisbatan **105,8** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Qarshi shahri (**1023,7** mlrd. so‘m), Koson (**542,5** mlrd. so‘m), Kitob (**522,6** mlrd. so‘m), Qamashi (**454,4** mlrd. so‘m), Qarshi (**433,6** mlrd. so‘m), Mirishkor (**386,4** mlrd. so‘m), Muborak (**367,1** mlrd. so‘m) va Yakkabog’ (**367,0** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

*Hajmi, mln. AQSH dol.*




*Ulushi, %da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

*Hajmi, mlrd. AQSH dol.*




*Ulushi, %da*



## 2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2023- yil yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **49,1** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **25,1 %** ini tashkil etdi.

## 2023- yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi




2023- yil yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Dehqonobod, Kitob va Ko'kdala tumanlarida – **100,0 %**, Yakkabog’ tumanida – **83,3 %**, Muborak tumanida – **80,0 %**, G'uzor tumanida – **70,5 %** Mirishkor tumanida – **65,3 %**, Shahrisabz tumanida – **57,2 %**, Qarshi shahrida – **53,0 %** va. Eng past ko‘rsatkich Nishon tumanida – **0,5 %** ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

**2018-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, *%da***




2023- yil yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **59,4** million AQSH dollarini yoki jami importning **59,0** % ini tashkil etdi.

**2023- yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, *% da***

2023- yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Shahrisabz, Ko'kdala va Mirishkor tumanlaida – **100 %,** Chiroqchi tumanida – **98,5 %,** Shahrisabz tumanida – **92,1 %,** Qarshi shahrida – **91,2 %,** Koson tumanida – **84,4 %,** Mirishkor tumanida – **81,4 %** ni tashkil etdi.






2023- yil yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **88,5 %** ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o‘sish sur’ati **108,6** % ni tashkil qildi.




2023- yil yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,4 %** ni tashkil etgan bo‘lib, 2022- yilga nisbatan o‘sish sur’ati **119,1 %** ni tashkil qildi.




2023- yil yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **86,3 %** ni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan o‘sish sur’ati **100,4 %** ni tashkil qildi.




2023- yil yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,6 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o‘sish sur’ati **101,5 %** ni tashkil qildi.

**2023- yil II chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi,** ***birlikda***




2023- yil II chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnomada **1488** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **921** (**61,9 %**) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi, **487** (**32,7 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **80** (**5,4 %**) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **41,2 %** (**613 ta**), xizmatlar sohasida – **25,9 %** (**386 ta**), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida– **13,4 %** (**200 ta**), sanoatda – **10,2 %** (**151 ta**), qurilishda – **9,3 %** (**138** ta) ni tashkil etdi.

**2023- yil II chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi**



**2023- yil II chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Qarshi shahri (**348** ta), Kitob tumani (**120** ta), Shahrisabz shahri (**105** ta), Koson tumani (**99** ta) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash,** ***% da***




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2023- yilning II choragida o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi qururilishda – **65,9 %** ni, savdo sohasida – **64,3 %** ni, xizmat – **61,4 %** ni, tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi sanoatda – **42,4 %** ni**,** xizmatlar sohasida – **34,2 %** ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **31,0 %** ni, savdoda – **30,7 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **9,5 %** ni, Savdoda – **5,1 %** ni, Sanoatda – **4,6 %** ni tashkil etdi.

## 2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni yaxshilanish deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi Qurilish sohasida – **76,1 %** ni, Xizmatda – **75,9 %** ni, Qishloq xo'jaligida – **73,5 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni o’zgarishsiz deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi – Sanoatda **24,5 %** ni, Savdo sohasida – **24,3 %** ni, Qishloq xo'jaligida – **20,5 %** ni tashkil etdi.

**Yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni yomonlashish deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi Qishloq xo'jaligida – **6,0 %** ni, Savdo sohasida – **4,7 %** ni, Sanoatda – **4,6 %** ni tashkil etdi.

**2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, *% da***

| | O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar | | |
|---|---|---|---|
| | Ko‘payish (yaxshilanish*) | o‘zgarishsiz | Kamayish (yomonlashish*) |
| **Korxonaning umumiy aylanmasi** | **64,8** | **29,3** | **5,9** |
| **Band bo‘lganlar soni** | **54,9** | **40,6** | **4,5** |
| **Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx** | **61,8** | **32,8** | **5,4** |
| **Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari** | **57,0** | **37,2** | **5,8** |
| **Raqobat muhiti** | **64,5** | **31,5** | **4,0** |

| | Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli | | |
|---|---|---|---|
| | Ko‘payish (yaxshilanish*) | o‘zgarishsiz | kamayish (yomonlashish*) |
| **Korxonaning umumiy aylanmasi** | **70,5** | **23,9** | **5,6** |
| **Band bo‘lganlar soni** | **60,1** | **35,4** | **4,5** |
| **Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx** | **66,1** | **28,5** | **5,4** |
| **Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari** | **62,7** | **31,2** | **6,1** |
| **Raqobat muhiti** | **70,0** | **25,5** | **4,5** |

***** *Faqat raqobat muhitiga tegishli***

**2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, *% da***




**2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, *% da***




**** Faqat raqobat muhitiga tegishli***